

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 17 (67234)
2019-yil 29-aprel

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

GAZETAMIZ FAXRIMIZ

«Tong yulduzi» muxlislar,
Tafakkurida porlar.
U o'quvchi-yoshlarni,
Ijod qilishga chorlar.

Kutamiz intiq bo'lib,
Hayajonlarga to'lib.
Qiziqarli har soni,
Ko'ngil uning oshyoni.

Yurtimizning dovrug'i,
O'lislarga ketadi.
O'g'il-qizlar orzusi,
Osmon qadar yetadi.

Mutolaa zavqi bo'lak,
«Ijod qil», deydi yurak.
Bizda yagona tilak:
O'qib-o'rganish kerak!

Gazetamiz faxrimiz,
Chin dildan bu so'zlarim.
Qilaylik birga ijod,
Keling, aziz do'stlarim!

Shohista SOBIROVA,
poytaxtimizning Shayxontohur
tumanidagi 40-umumta'lim
maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi



Aziz o'quvchilar!

ONAJONIM TABIAT insholar va rasmlar tanloviga marhamat!

Jonajon yurtimiz tabiati, atrof-muhit, yer va suv resurslarini muhofaza qilish, ekologiyani yaxshilash kabi ezgu ishlarda Siz aziz o'quvchilar faolligini oshirish, ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirish, shu bilan birga, yoshlar qalbida ona tabiatga yanada mehr uyg'otish maqsadida:



O'zbekiston Ekologik partiyasi, O'zbekiston Ekologik harakati, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlarning «Tong yulduzi» gazetasi, «Buloqcha» – «Rodnichok» bolalar ekologik jurnali hamkorligida «Onajonim tabiat» an'anaviy insholar va rasmlar tanlovini o'tkazadi. Tanlov shartlari quyidagilardan iborat:

1. O'zingiz yashab turgan mahalla, qishloq, tuman, shahar tabiati, ekologik muammolari hamda ularni bartaraf qilishga doir fikr-mulohazalaringiz asosida insho, mavzuga oid chizilgan rasmlar (insholar hajmi 3 betdan oshmasligi lozim).
2. Siz tahsil olayotgan maktab qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar»

to'garagi faoliyati haqida qisqacha ma'lumot.

Qadrlil tabiatsevar o'g'il-qizlar! Tanlovda faol ishtirok etishga shoshiling. Ijodiy ishlaringizni 2019-yilning 20-may sanasiga qadar quyidagi manzilga yo'llang:

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30 uy.
Indeks: 100011
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon: faks (0-371) 244-63-08

«Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovi»ga deb yozishni hamda siz bilan bog'lanish uchun telefon raqamingizni ko'rsatishni unutmang.

G'oliblar diplom va homiy tashkilotlarning esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

TASHABBUSGA TASHNA YURAKLAR

Xabaringiz bor, joriy yilning 19-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektorda yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda ularning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari hamda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish bo'yicha beshta muhim tashabbus ilgari surildi.



Yurt-boshimiz tomonidan e'lon qilingan «Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta tashab-

bus!» bilan sinfimiz o'quvchilarini yaqindan tanishtirdim.

Ular bilan tanlagan yo'nalishlari yuzasidan tadbir tashkil etdik. Unda har bir o'quvchi beshta tashabbus asosida qiladigan ishlarini aytib berdi.

San'at, kitobxonlik yo'nalishlarida o'quvchilarimning faolligi ortdi. Ular o'zlar o'qigan badiiy kitoblar, buyuk allomalarimizning hayoti va ijodi haqida bir-birlari bilan o'zaro fikr almashdilar.

Tadbir yakunida «Mening orzum» mavzusidagi erkin og'zaki bayonda o'quvchilar o'z orzu-umidlari haqida to'lqinlanib so'zlab berdi.

Dilorom IMINJONOVA,

Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Prezidentimizning ushbu chaqiriqlariga Toshkent tumanidagi 30-umumta'lim maktabi pedagoglar jamoasi va o'quvchilari labbay, deb javob berishdi. Yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirish, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan «Kelajak uchun birlashaylik!» shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.



Tadbirda Xalq demokratik partiyasi raisi o'rinbosari Ma'suda Voriyeva, Markaziy Kengashi mas'ul xodimi Ravshan Hamidov, Toshkent tumani xalq ta'limi bo'lim mudiri Zokir Tovboyev, shuningdek, hamkor tashkilotlar vakillari va ota-onalar ishtirok etdilar. Tadbirda maktabning 8–11-sinf o'quvchilari tomonidan kitobxonlikni targ'ib qiluvchi she'r va qo'shiqlar ijro etildi. 9-sinf o'quvchilari Sirojiddin Sayfuddinov, Dilafroz Faxriddinova ijrosidagi Navoiy va Guliston monologi, 11-«A» sinf o'quvchisi Abdullaziz Xalilov ijrosidagi Bobur nidosi, 10-sinf o'quvchi-qizlari ijrosidagi qozoq milliy raqslari, 11-sinf qizlari sahnalashtirgan o'zbek milliy raqslari barchaga manzur bo'ldi. Maktabning 10 nafar pedagoglari «Bolaga kitob bering!» she'ri sahna ko'rinishi tarzida ijro etib, ota-onalarni farzandlariga kitob olib berishga da'vat etdilar. Tadbir davomida rasmlar tanlovi, sportning shaxmat-shashka turi bo'yicha musobaqalar, «Mohir qo'llar» to'garagi a'zolarining ko'zgamalari namoyish etildi.

Tadbirda tashrif buyurgan mehmonlar tomonidan maktab kutubxonasi uchun 400 ta badiiy kitoblar sovg'a qilindi. Tadbir yakunida maktab direktori Z. Zokirova tomonidan uyda yakka tartibda ta'lim olayotgan 6 nafar o'quvchilarga badiiy kitoblar tarqatildi.

Mahmuda MAVLYANOVA, Fotima TOJIBOYEVA,

Toshkent tumanidagi 30-umumta'lim maktabining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari

BILIMDONLAR RESPUBLIKADA BELLASHADI

Yaqinda Surxondaryo viloyatining Denov tumanida «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda tumandagi 17-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatining 5–8-sinf o'quvchilaridan 31 nafari faol ishtirok etib, jami 12 ta fan bo'yicha 11 nafar o'quvchi 1-o'rinni, 7 nafar o'quvchi 2-o'rinni va 3 nafar o'quvchi 3-o'rinni egallashdi. Umumiy hisobda 21 ta g'alaba tuman bosqichi natijalari uchun yomon emas. O'tgan yilgi natijalarga ko'ra mazkur maktab-internat «Bilimlar bellashuvi» va «Fan olimpiadasi»ning tuman va viloyat bosqichida 1-o'rinni qayd etgan bo'lsa, respublika miqyosida o'quvchilarning ta'lim sifati monitoringida esa 4-o'rinni egalladi. Mazkur 2018–2019-o'quv yilida maktab jamoasi O'zbekiston Yoshlar ittifoqi hamkorligida o'z oldiga mas'uliyatli vazifalar qo'yib, maktab-internatning reytingini respublikada 1-o'ringa chiqarishga astoydil bel bog'lashgan. Intilishlar, izlanishlar samarasiz qolmaydi, deganlaridek, muvaffaqiyatlar bardavom bo'ldi. «Fan olimpiadasi»ning viloyat bosqichida 9–11-sinf o'quvchilari faol ishtirok etib, 6 nafar o'quvchilar faxrli o'rinlarni egallab, maktab jamoasining yuzini yorug' qilib qaytishdi. Jumladan, 10-sinf o'quvchisi Shohjahon Qo'ziyev tarix fanidan 1-o'rin, 9-sinf o'quvchisi Behruz Eshboyev matematika fanidan 1-o'rinni egallashdi. Qolaversa, kunj kecha bo'lib o'tgan xalqaro IMO matematika musobaqasining viloyat bosqichida maktabning 9-sinf o'quvchisi Behruz Eshboyev 2-o'ringa loyiq deb topildi va respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Ularning bu yutuq'ida maktabimiz direktori Nargiza Sapiyevaning, shuningdek, Alimurod Jumayev, Alimardon Jabborov, Nigora Astanaqulova, Lola Meliyeva singari ustozlarimizning xizmati katta. Maktabimizning bilimli, salohiyatli, zukko o'quvchilari esa Mustaqil O'zbekistonimizning portloq kelajagi yo'lida xizmat qilishlari, shubhasiz.



Mashrab ANOROV, Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 17-DIUMning Yoshlar ittifoqi yetakchisi

YOSHLARNI BIRLASHTIRGAN FESTIVAL

Joriy yilning 21-aprel kuni Qo'qon shahri yoshlari uchun unutilmas kun bo'ldi.



Ushbu kunda «Biz yoshlar Prezidentimiz tashabbuslarini bajaramiz!» shiori ostida festival bo'lib o'tdi. Beshta tashabbus asosida tashkillashtirilgan festivalda shahrimizning deyarli barcha umumta'lim maktablari o'quvchilari ishtirok etishdi. Shahar hokimligi va boshqa tashkilot vakillari tashrif buyurishdi. Yosh ijodkor yoshlarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi namoyish etildi. Shahar sardorlar Kengashi tomonidan kitob aksiyasi uyushtirildi. Kuy va qo'shiqlar ijrosi kechaga o'zgacha zavq bag'ishladi.

Bu kabi tadbirlar biz yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Roziyaxon BAHODIRXONOVA, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 18-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

Atrofimizda bo'layotgan turli voqea-hodisalarni har birimiz turlicha qabul qilamiz. Kimdir ulardan o'ziga tegishli xulosa chiqarib olsa, yana kimdir befarqlik bilan qo'l siltaydi. Lekin men turmushimizda, ayniqsa, ta'lim muassasalarimizda uchrab turadigan adolatsizlik va nohaqliklarga befarq qarab turolmayman. Chunki maktab inson hayotida, kamolotida asosiy o'rin tutadi. Dunyoqarashlar shu maskanda shakllanadi.

ISTE'DODNING YO'LINI TO'SMANG!

Sinfodoshim Azizbekning biroz odamovi va o'jarligini aytmasa, qobiliyatli va a'lochi o'quvchi. Kitobxonlik bobida ham oramizda undan o'tadigani yoq. Lekin nima uchundir ko'pchilik o'qituvchilar Azizbekka ishonchsizlik ko'zi bilan qarashadi.



Bir kuni Azizbek sinfga jig'ibiyron bo'lib kirib keldi. Butun dars davomida ham parishon holda o'tirdi. Uni ko'rib, hayron bo'ldim. Qo'ng'iroq chalingandan so'ng yoniga borib, nima bo'lganini so'radim. Sinfodoshimning

aytishicha, tuman miqyosidagi bir tanlovga qatnashish uchun ko'pdan beri tayyorgarlik ko'rib yurgan ekan, ammo ba'zi o'qituvchilar unga aytmasdan asossiz ravishda o'rniga boshqa o'quvchini olib ketishibdi.

Alisher Navoiy «Ulug' ishlarni ulug' iste'dodlarsiz qilib bo'lmaydi», deb yozgan ekanlar. Shogirdlari va suhbatdoshlariga: «Baxillik doim nursiz jamiyatda iste'dodlarning yo'lini to'sur, dono va zakovatlilarni yuzaga chiqarmay, hayf qilor, bundan butun xalq zarar ko'rur. Dunyodagi eng mash'um baxillik iste'dodlarning yo'lini to'suvchi baxillikdir. Dunyodagi eng oliy saxovat esa nodir iste'dodlarni yuzaga chiqaruvchi saxovattir», degan ekanlar.

Bobomiz naqadar haq gapni aytganlar. Ulug' mutafakkirning ushbu dono fikrlari bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Ayni paytda, ta'lim muassasalaridagi ayirmachilik va nohaqliklar asl iste'dodlarning yuzaga chiqishiga to'sqinlik qiladi. Eng achinarlisi, biz bu kabi illatlarga ko'z yumib kelyapmiz. Yuqorida guvohi bo'lganingizdek, bunday vaziyatlarda harakatchan bolalarning kelajakka bo'lgan ishonchi yo'qolib, jamiyatda o'z o'rnini topishga qiynalishi mumkin. Maktab davridagi musobaqalar, tanlovlar muhim ahamiyat kasb etmas. Asosiysi – bilim! Mukammal bilimga ega bo'lmay turib, sovrinbozlik, «ura-ura»ga berilgan tengdoshlarimiz ham, vaqti kelib, hayotda qoqilishi turgan gap. Shunday ekan, bunday holatdan kimga foyda-yu, kimga zarar? Kattalarning bu ishidan yoshlarimiz qanday ibrat oladi? E'tiborliroq, jur'atliroq, bo'laylik, bunday holatlarga also yo'l qo'ymaylik. Jamiyatimizda yo'lto'sar baxillik illatining ildiz o'tishiga yo'l qo'ymaylik, aziz do'stlar!

Dilshodbek RAHMATULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi
13-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

FARROSH XOLA O'RNIGA onamni qo'yib ko'rdim



4-sinfda tarbiyaviy soat darsi. «Kasbim – faxrim» mavzusida suhbat o'tilmoqda. O'qituvchi o'quvchilardan ota-onalari kim bo'lib ishlashini so'rab chiqmoqda. O'rta qatordagi bolaga savol berildi:

- Onang kim bo'lib ishlaydi?
- ...
- O'g'lim, onangni kasbini so'rayapman.
- Farrosh...

Sinfda shivir-shivir boshlandi. Ustoz sergaklandi. Bolaga mehribonlik bilan murojaat qildi:

– Ko'p xayrli kasb egasi ekanlar. Ozodalik – salomatligimiz garovi. Tozalik posbonlari esa farrosh xolalarimiz bo'ladi. Shunday savobli kasb egasi bo'lgan onajoningga munosib farzand bo'lish uchun a'lo baholarga o'qigin. O'tir.

Bu holatda ikkita savolga javob topsak. Birinchisi, nega o'quvchi onasining kasbini aytishdan uyaldi? Axir bu o'g'rilik, firibgarlik emas, halol xizmat-ku. Ammo uning sinfdoshlari bu kasb egalarga bepisandlik qilishadi. Ayrim o'qituvchilarimiz dangasa o'quvchilarga bilimsizlik oqibatida farrosh (pol artuvchi, ko'cha supuruvchi), cho'pon (to'pori, qo'pol), bozorchi (vaysaqilik) kabi kasblarga ega bo'lishlarini aytib, bilim olishga undashadi. Tabiiyki, bu tahlid gaplardan keyin o'quvchilar bu kasb egalarga past nazar bilan qaray boshlaydilar. Natijada, ularning kasbi kamsitiladi: ulik farzandlariga past nazar bilan qaraladi, do'stlar safidan chetlatiladi. Shu sababli ham ayrim o'quvchilar «Onang kim bo'lib ishlaydi?» degan savolga, «Uy bekasi», deb javob berishni ma'qul ko'radi. Aslida esa sarishtalik ishlari muhim ekologik tadbir hisoblanadi.

Ikkinchi savol, ta'lim muassasangizdagi farroshlarning ismlarini bilasizmi? Yoshlarini-chi? Bu har bir o'quvchining vijdoniga berilgan savol.

O'zim uchun javob bersam, men boshlang'ich sinfda o'qiyotganimda, tartibsiz sinfxonamiz qanday qilib ertalabgacha ozoda bo'lib qolishini tushunmasdim.

Ertaklarni ko'p eshitganim uchunmi, negadir xonani farishtalar tozalab qo'yadi, deb o'ylardim. Lekin bir kuni ustozimiz sho'xlik qilganim uchun jazo sifatida darsdan keyin diktant yozdirishga olib qoldi. Shu payt xonaga onam tengi bir ayol chelak va tozalash anjomlarini ko'tarib kirib

keldi. Yarim soat ichida ko'ngimda sinf xonamizga fayz kirdi. Ana shunda qog'oz parchalarini, chiqindilarni sinfigimizga, maktab hovlisiga tashlaganimga, partaning tagiga saqich yopishtirib, pista po'chog'ini uyub, tufilimning loyi bilan polni iflos qilganimdan uyali ketdim. Axir har bir qog'oz parchasi uchun yerga egilish, muntazam qo'lni suvdan chiqarmay pol yuvish osonmi?! Bir lahzaga o'sha farrosh xolaning o'rniga onamni qo'yib ko'rdim. O'zgalar mehnatini qadrlashni o'rgandim. O'ylaganimday, xonalarni farishtalar tozalamasada, farroshlar men uchun maktab farishtalariga aylanib qoldi.

Nazarimda, har bir ustoz tarbiyaviy ishlarni – maktab farroshlarini tanishtirishdan boshlashi kerak. Ana shunda o'quvchilar ular mehnatini qadrlaydigan, ota-onasining mol-u davlatiga, lavozimiga qarab do'st tanlamaydigan bo'lishadi. Ha, aytganicha, maktabimiz farishtasining ismi Nigora xola ekan.

Otabek BAKIROV,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
27-umumta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi

SHODON O'TAR HAR KUNIM

Men so'lim Rapqon qishlog'i bag'ridagi maktabda tahsil olaman. Ustozim Feruza Nizomiddinovanani barchamiz yaxshi ko'ramiz. Ular bizga onamizdek mehribonlar.

Feruza opamiz «Qiziqarli matematika», «Ona tilim – jon-u dilim», «Ifodali o'qish» kabi mavzularda darslardan tashqari mashg'ulotlar ham o'tadilar. Bunday qiziqarli mashg'ulotlarda qatnashib, yanada ilhomlanib ketaman.

Ustozimiz «Kitobxonlik oyligi» davomida o'tkaziladigan tadbirlarimiz uchun she'rlar yod olishimiz, o'qigan kitoblarimiz asosida sahna ko'rinishlari tayyorlashimiz kerakligini aytdilar. Men shoir Muhammad Yusufning «Onajonim» she'rini yod oldim. Abdulla Oripovning «Tabiat bilan



kunim shunday maroqli, mazmunli o'tayotganidan juda xursandman.

Madinabonu VALIYEVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
26-umumta'lim maktabining
3-«G» sinf o'quvchisi

SHE'RIYAT SHAYDOLARI



Maktabimizda Muhammad YUSUF tavalludining 65 yilligiga bag'ishlab tadbir tashkillashtirildi. Unda 1-«B» sinf o'quvchilari shoir she'rilaridan yod olishdi.

«Kamalak» yulduzlari» ishtirokchilari shoir qalamiga mansub she'rardan qo'shiqlar ijro etishdi. 11-«B» sinf o'quvchilari Sug'diyona Tojiddinova va Feruza No'monova, 9-«A» sinf o'quvchisi Munisa Muqimjonova sevimli shoirlar bag'ishlab yozgan she'rilarini o'qib berishganda, zalda gulduros qarsaklar yangradi. Shuningdek, diktantlar tanlovi o'tkazildi. Robiyaxon Qambarova, Malikaxon Vohidullayeva. Munisa Zaynobiddinova diktantni xatosiz yozib, faxrli o'rinlarni egallashdi.

She'riyat shaydolarining anjumani ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Dilshodbek AHMEDOV,
Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 16-umumta'lim maktabining Yoshlar ittifoqi yetakchisi



Chiroqchi tumani «Obod» nomli mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Qoraburug' qishlog'i kichkintoylari uchun tadbirkor Farhod Jumanov tomonidan yana bir qulaylik yaratildi.

CHIROQCHIDA YASHNAGAN BOG'CHA

Qishloq markazida nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi qad rostladi va o'z faoliyatini boshladi. Qishloqda bunday zamonaviy, barcha qulayliklarga ega muassasaning barpo etilganidan barcha mamnun bo'ldi. Ayniqsa, jajji bolajonlarning quvonch-u shodliklari cheksiz.



Rus va ingliz tillariga ixtisoslashgan bog'chamizda 130 nafar bolajonlar ta'lim-tarbiya olishmoqda, – deydi «Hello happy kids» nomli maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi Manzura Shaymardonova. – Qishlog'imizdagi kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalarning 45 nafar farzandlari uchun imtiyoz – to'lovdan chegirma joriy qilingan bo'lib, ulardan 19 nafari mutlaqo bepul tarbiyalanishadi. Kichkintoylar futbol, shaxmat-shaxsha, rasm chizish kabi to'garaklarda faol qatnashib kelmoqda.

Viloyat markazi – Qarshi shahridan qariyb 100 kilometr olisda bo'lgan mazkur qishloqda faoliyati yo'lga qo'yilgan ushbu bog'chada tarbiyalanayotgan kichkintoylar endi yozish-chizishni bilishadi, rus va ingliz tilida gapirishadi, boshlang'ich bilimlarni mukammal egallab, hademay maktabga qadam qo'yadi. Eng muhimi, har tomonlama sog'lom, aqlan yetuk bo'lib ulg'ayishadi.

Illhom RAHMONOV,
Qashqadaryo viloyati

APREL – KITOBXONLAR OYLIGI

Maktabimizda «Aprel – kitobxonlar oyligi» deb e'lon qilindi.

2-«D» sinf o'quvchilari bilan kitob xarid qilib, kutubxona fondini boyitishga hissa qo'shdik. Zero, kitob bilim beradi.



Bilim esa qalbimiz va shuurimizni ravshan etadi. Kitobga bo'lgan mehri boshlang'ich sinfdanoq singdira boshlasak, bu nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Yosh avlod bolalikdan kitoblarni olamiga oshno bo'la oladi. O'z farzandini qo'llab-quvvatlagan ota-onalarga ham rahmat deyman.

Mahliyo FATTOHOVA,
Buxoro viloyati,

G'ijduvon tumanidagi
43-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

ORTGA CHEKINISH YO'Q,

– deydi poytaxtimizdagi 114-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi Asal Ravshanxonova.

«Kitob – yaxshi ustoz», degan iborani eshitgansiz-a, aziz o'quvchilar? Chindan ham kitob bergan bilimni na telefon, na internet orqali egallay olasiz. Chunki kitob sizga mutolaa qilayotgan asaringizni istagan vaqtingizda qayta o'qish, kerakli jumalarni yod olish yoki yozib olish imkonini beradi.



Tengdoshingiz Asalxon ham bo'sh vaqtda kitob mutolaa qilishni yoqtiradi, yana she'r ham yozadi.

– Badiiy asarlarni, ertaklarni miriqib o'qiyman. Ayni kungacha 20 ta kitobni o'qib chiqdim. Bulardan O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asari, Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sehri qalpoqcha», «Sariq devni minib», «Shirin qovunlar mamlakatiga sayohat» nomli kitoblarini, «O'zbek xalq ertaklari» to'plamini mutolaa qildim. Ayniqsa, tilla sochli Parizodning

sarguzashtlari, botir aka-ukalarning ko'rsatgan qahramonliklari, yalmog'iz-u yosumamlarning firibrlari haqidagi qiziqarli voqealar menda katta taassurot qoldirdi.

O'tgan yili «Yosh kitobxon» respublika tanlovinin viloyat bosqichigacha chiqqandim. Bu yil ushbu ko'rik-tanlovga puxta tayyorgarlik ko'rib, respublika bosqichida g'olib bo'lish niyatim bor. Tanlov shartlari bora-bora murakkablashmoqda. Ammo bu meni cho'chitmayapti, yanada ko'proq kitob o'qishga intilyapman, orzularim ushali yo'lida ortga chekinmayman...

Asalxonning orzulari yoshi bilan birga ulg'ayib bormoqda. Biz ham Asalxonning kitobxonlik tanlovi g'oliblari qatorida bo'lishiga tilakdoshmiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi 16-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi Farangiz Abdullayeva o'ta tirishqoq va harakatchan qiz. Intiluvchanligi bois maktabdagi «Qiziqarli matematika», «Ona tilim – jon-u dilim», «Ifodali o'qish» kabi to'garaklarga qatnaydi.

ORZULARI CHEKSIZ QIZALOQ

Sportning «Stol tennis» turiga qiziqadi. U maktabda Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda o'tkazilgan «O'yla, izla, top!» musobaqasi g'olibi bo'ldi. Maktabdagi «Eng namunal o'quvchi» nominatsiyasini ham shu o'yin orqali qo'lga kiritdi. – Farangiz bu yil maktabimizda o'tkazilgan tadbirda «Bahoroy» timsolida badiiy chiqish qildi. Uning orzulari bir dunyo: tibbiyot sohasida professorlik maqomiga erishgan tog'alari izidan borib, shifokor bo'lishni niyat qiladi. Uning beg'ubor orzulari ro'yobiga tilakdoshman, – deydi Farangizning sinf rahbari Maqsuda Nurmetova.



Muborak MATYOQUBOVA

O'QUVCHILIK BURCHINGIZNI UNUTMANG!

O'quvchining eng katta orzusi, o'z oldiga qo'ygan maqsadi nima, bilasizmi? Bu savolning javobi oddiy: ustozlar mehnatini oqlash, ota-onasiga munosib farzand bo'lishga intilib yashamoqdir. Boshqacha bo'lishi mumkinmi?

Axir kim ham o'qituvchisining obro'siga putur yetkazishni, ota-onasini uyaltirishni istaydi, deysiz?!

Albatta, istamaydi. Lekin ba'zida shunday holatlar ham uchraydi hech kimga sir emas.

Biz ko'pincha bolalar biror nojo'ya ish qilganlarida: «Hali yosh-da, bilmay shunday ish qilib qo'yibdi-da», deya ularni kechirishga harakat qilamiz. Ammo, bilasizmi, xatolar quvusizlik, qonun-qoidalarni bilmaslik, ularga rioya qilmaslikdan kelib chiqadiki, bunday xatolarni takrorlamaslik uchun qonun-qoidalar bilan tanishib borish, mulohaza yuritib, qilgan xatoligidan to'g'ri xulosa chiqarib olishlari lozim...

Yaqinda poytaxtimizdagi maktablardan birida o'qituvchisini haddan ziyod asabiylashtirgan hamda ularning nizosini tasvirga olib tarqatgan o'quvchilarning ota-onalari ma'muriy javobgarlikka tortilganidan xabaringiz bor. Dars paytida ustozni topshirgan vazifani bajarmaslik, boz ustiga, boshqa o'quvchilarga xalajaq berish mumkin emasligini, uyali aloqa vositasidan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 139-sonli qarori mohiyatini tushuntirish bo'yicha barcha maktablarda pedagoglar, o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida tushuntirish ishlari amalga oshirilgan.



Agar ana shu kabi qoidalarga rioya qilinsa, hech qachon yuqoridagi kabi holatlar yuzaga kelmasligi tayin. O'z sinfidagi jarayonni tasvirga olib, ijtimoiy tarmoqlarga tarqatib yuborgan tengdoshingizning bu qilmishini qanday baholash mumkin? Ustozi, sinfdoshi, qolaversa, o'zi tahsil olayotgan maktabining sha'ni, obro'si uning ham sha'ni-ku, axir. Nahotki, shuni anglab yetmasa yoki o'qituvchini haqorat qiladigan ayrim bolalar bu kasb egalari naqadar ulug' zot ekani haqidagi ota-bobolarimizning o'g'itlarini o'qimagan, eshitmagan bo'lishsa? Bunday noxush holatlarga guvoh bo'lgan fidoyi ustozlarimiz ko'nglidan nimalar kechishi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?

Quyida e'tiboringizga o'sha ko'ngilsiz voqea ishtirokchisi bo'lgan poytaxtimizdagi 141-umumta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi Bibidono Mirzayevaning kuyunchalik bilan aytgan gaplarini havola etamiz.

– Shuncha shov-shuvlariga sabab bo'lgan voqea qaramay o'quvchilaringa mehrim o'zgacha. Men o'qituvchiman. Sharafli va shu bilan birga, mashaqqatli kasb egasiman. Men faqat bir narsani, u ham bo'lsa, yosh avlod tarbiyasida ota-onalar ham o'z vazifalarini unutilib qo'ymasliklarini istardim. Axir farzandlarimiz kelajagi faqat biz ustozlargagina emas, ularning ota-onalariga ham bog'liq-ku. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonida bir-birimizni qo'llashimiz, birgalikda harakat qilmog'imiz lozim...

Ana shunday mehdirdaryo, bag'rikeng ustozlarining yuzlarini yorug' qilishga intilayotgan shu maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi,

matematika fani bo'yicha xalqaro «Kenguru» olimpiadasi ishtirokchisi Ibrohim Ahmadjonov esa quyidagicha fikr bildirdi:

– Men matematika faniga juda qiziqaman. Bu fan va ustozim Bibidono opaning saboqlari menga hamisha sirli, mo'jizaviy tuyulaveradi. Shu sabab, hamisha o'qituvchimning mehnatlarini oqlab, fan olimpiadalari va turli musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishga intilaman. Kichkinagina bir yutuqni qo'lga kiritganimda ham ustozimning qanchalar quvonganlarini bir ko'rsangiz edi. Men barcha tengdoshlarimizning bizdan bor bilim, salohiyati, mehnatini ayamaydigan ustozlarimizni hurmat qilishlarini istayman.

Biz ham bu samimiy istak yurtimizdagi har bir o'quvchining yuragida yashashiga tilakdoshmiz.


Sayyora QODIROVA



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 13-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinflarida «Bolaga kitob bering!» tadbirlari bo'lib o'tmoqda.

Lesson 17

CONJUNCTION



Conjunctions are very important in English. We use them every day. A Conjunction is a word that joins parts of a sentence, phrases or other words together. Conjunctions are used as single words or in pairs. *And, but, or* are used by themselves, *whereas, neither/nor, either/or* are conjunction pairs.

Coordinating conjunctions

Coordinating conjunctions never come at the beginning of a sentence.

For – This conjunction is used to sight a reason or purpose.

e.g. *I bought a new bag for my trip.*

And – It connects one thing to another.

e.g. *I like both tea and coffee.*

Nor – It is used to indicate a negative idea to an already existing negative idea.

e.g. *Neither the white dress nor the yellow one looks good on her.*

But – It is used to show a contrast between two items or ideas.

e.g. *I wanted to go for travel but I have to go work today.*

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

TWO FISHERMEN

There were two fishermen who were close pals. They used to catch fish together on weekends. Since they were busy in their personal work and family, they hardly spend time together. It was a Saturday and they decided to drive to a nearby pond to enjoy their day in fishing. Also, they wanted to have some feast with the fish they catch.



Both carried essential utensils, cooking accessories, ingredients and fishing equipments. They reached the pond.

They sat at a distance and started hunting for the fish. The first fisherman got a big and beautiful fish in a few minutes. He was so happy and placed the fish in the ice box to retain the freshness. He decided to cook the fish as a whole fish in the noon. He spent some more time and captured a few more fishes. He decided to make a grand meal with the fish. Also, he froze a few fishes to take it back to home.

It was almost more than an hour they were fishing. He then approached the second fisherman and asked him if he need any help. The second man said no. In a few minutes, the second fisherman captured a large fish. However, he put that back into the lake.

The first man was surprised at his act. He remained silent. The second man captured many big fishes, but he just put back all those fishes into the lake.

Very annoyed by his act, the first fisherman angrily asked him, 'Are you mad? Why do you put your fishes back into the water? They were beautiful and big!'

The second fisherman replied, 'I know they were big, but I don't have the big pan to cook the big fish! So I'm looking for a smaller fish that fits my cooking pan! The god is troubling me today.'

By hearing this, the first fisherman was surprised. He advised the second fisherman to cut the big fish into small pieces to suit in the pan and cook them properly.

Many people are just like the second fisherman. We are provided with handful of big opportunities, chances and even fortune that we many times overlook. We need to work out just the same like the big fish fit into a small pan.

God will always give massive possibilities as well as problems that we can handle effortlessly. Everything given to us is within our means. Tell your problems that you have God with you rather than telling the god that you have problems.

Hamidulla MURODOV,
Toshkent viloyati,
Bo'stonliq tumani

IRMOQ

Baland tog'larda,
Yashaydi irmoq.
Toshdan toshlarga,
Sakraydi irmoq.

Kuylashin deysiz,
Misli qo'ng'iroq.
Ovozasidan,
Yangraydi o'tloq.

Shodlantiradi,
Barcha-barchani.
Joniday sevar,
Bahor archani.

Yashillik uchun,
Umrin baxshida.
Etib yashash ham,
Qanday yaxshi-da!

ZAFARBEKKA ZAFAR YOR BO'LSIN!

Zafarbek Haydarqulovning orzulari bir olam. U maktabga borib, quvnoq bolalarga qo'shilib, yelib-yugurib bilim olishni xush ko'radi. Onasi har gal uni Toshkentga yetaklab kelganida, osmono'par binolar qarshisida hayratlanib, o'y suradi. «Bir kun kelib, men ham Toshkentda o'qib, atrofdagilarga foydam tegadigan inson bo'laman», deydi.

«Saraton» qalbingni o'rtaydi,
Talpinib yashaysan bahorga.
Yuraging bir kuni gullaydi,
Kelasan o'zgacha qarorga.

Dard unsiz qiynatar dilingni,
Sen uni qayoqdan olgansan?
Yulduzlar yoritar yo'lingni,
Surxonni sog'inib qolgansan.



Validang yashirgan ko'z yoshin,
Yo'lingga gul kabi sochadi.
Tilayman men uning bardoshin,
Dard seni ko'rganda qochadi.

Bilasan, bu dunyo gohida,
So'rovsiz yurakni tiladi.
Qushlar ham daraxtlar shoxida,
Chug'urlab darsini qiladi.

Nigohlari teran bu bolakayning bebaho olami bilan oshno bo'lgach, uning ko'pdan beri og'ir xastalik bilan kurashib kelayotganiga guvoh bo'ldim. Zafarbekning bir yildan ko'proq vaqti shifoxonada o'tdi. Ammo u hech qachon xastalik azobidan tushkunlikka tushmadi. O'zining beg'ubor bolalik olami ichra quv nab yuribdi.

Zafarbek, sen ismingga mos yigitsan, bir kun kelib, albatta, xastalik ustidan zafar quchasan!

Bir kuni sen zafar quchasan,
G'alaba oshiqar sen tomon.
Osmonga qush kabi uchasan,
Bor dardni yengasan, Zafarjon!

AXTAMQULI

QO'ZIQORIN

Qo'ziqorin,
Qo'ziqorin,
Buncha totli,
Bo'lar ta'ming.

Sen bodraysan,
Dala, bog'da,
Ko'k qaldirab,
Qolgan chog'da.

Boshga kiyib,
Oppoq qalpoq,
Turishlaring,
Go'zal qandoq.

Go'zalliging,
Buzgim kelmas,
Yeyish uchun,
Uzgim kelmas.



BOBOJON

Bobojonim, bobojon,
Soqollari yarashgan.
Yuzidan nur taralib,
Bizga mehr ulashgan.

Erta tongdan uyg'onib,
Qo'lga suv quyaman.
Duo qilsa, quvonib,
Uni quchib suyaman.

Bobojonim, bobojon,
Sizni yaxshi ko'raman.

Ozodbek UTAMURODOV,
Toshkent viloyati, Qibray
tumanidagi 37-umumta'lim
maktabining 3-«A» sinf
o'quvchisi

Sinfga ilk bor kirgan muallima partaga qo'lini ustma-ust qo'yganicha unga tikilib o'tirgan o'g'il-qizlarning har birini sinchkovlik bilan kuzatdi. «Ajoyib bolalar ekan», degan fikr o'tdi xayolidan. «Beg'uborliklari yuz-ko'zlarida shundoqqina aks etib turibdi-ya! Maktab formasi, kitob, daftar va ruchkaning partada joylashishi... hammasi chiroyli! Naqadar baxtiyor damlar!»

Muallima o'quvchilar bilan yaqindan tanishish maqsadida sinf jurnalini ochdi-da, yo'qlama qilishga tushdi. – Kim Baxtiyor, – jurnaldagi bu yozuvni o'qiyotganida, beixtiyor ovozi jaranglab ketgandek bo'ldi. – Men ... – o'rta partada o'tirgan yoqimtoy o'quvchi o'ng qo'lini ko'targanicha sapchib o'midan turdi.

Muallima bir jurnalga, bir bolaga yuzlandi. Qiziqsindi: – Koreys millatiga mansub bolaga Baxtiyor ismini qo'yishibdi. Ajoyib! Qani, doskaga marhamat, – muallima mehr to'la ko'zlarini bilan o'quvchini o'zi tomon chorladi. Uning yurish-turishiga razm soldi. «Rostdanam ismi jismiga monand bola ekan!»

– Ismingni kim qo'ygan? – qiziqsinib so'radi muallima. – Dadam, – deya javob berdi qimtinibgina bolakay. – Dadang nima ish qiladilar? – Tadbirkorlar. – Oying-chi? – Do'xtir. – Katta bo'lsang, kim bo'lmoqchisan? – O'qituvchi. – Qaysi tillarni yaxshi ko'rasan? – O'zbek va koreys tilini. – Yaxshi, hozirdanoq barcha fanlarni puxta o'zlashtirsang, baholaring faqat «a'lo» bo'lsa, kelajakda o'z orzungga erishasan, – muallima shunday deya o'quvchilarga yuzlandi. – Bolajonlar, sizlar yurtimizning ertangi kuni egalarisiz. Shuning uchun a'lo baholarga o'qib, yaxshi kasb-hunarni egallashingiz kerak. Buning uchun hamma sharoit, imkoniyatlar mavjud, to'g'rimi?

– To'g'ri! – bolalarning ovozi sinfni tutdi. Muallima qo'lga bo'rmi oldi. Doskada chiroyli yozuvdagi matn paydo bo'ldi. U yangi mavzuni tushuntira ketdi. Muallimaning xushmuomalaligi, yoqimli ovozi, mehri bolalarni o'ziga butunlay

maftun etdi.

Tanaffus. Sinfdan chiqib ketayotgan muallimaning ortidan qarab qolgan o'quvchilardan biri:

– Ustoz juda baxtiyorga o'xshaydi! – dedi beixtiyor. Atrofdagilar bu so'zni



KIM BAXTIYOR (Hikoya)

go'yo o'zlari aytgandek mamnun bo'lib, bir-birlariga sirlil boqishdi...

Uyiga qushdek uchib kelgan Baxtiyor hayajonini bosolmas, xursandligini yashirolmadi...

– Namuncha og'zing qulog'ingda, bolam?

– Bilasizmi, onajon, bugun-chi, bizga yangi ustoz dars o'tdilar.

– U yaxshi o'qituvchi ekanmi?

– Ha, o'zlari ham, ovozlari ham chiroyli ekan... Nima desam ekan, judayam baxtiyor ekanlar.

– Buni darrov qayerdan bila qolding?

– Ko'zlaridan, chehralaridagi tabassumdan, yurish-turishlaridan va biz bolalarga bo'lgan muomalalaridan. Ismim ... mening ismim ustozga juda yoqdi. Ismingni kim qo'ygan, deb so'radilar?

– Obbo bolajonim-ey! – deya onasi Baxtiyorni mahkam bag'riga bosdi va peshonasidan o'pdi. Unga Baxtiyor deb nom berishgani sababini aytib berdi.

– Voy, qanday yaxshi, – chapak chalib yubordi Baxtiyor. – Menga hozir aytgan gaplaringizni yozib bering, ustozimga ko'rsataman.

– Mayli, bolam, qani, ruchka, qog'oz olib kel-chi.

Daftar sahifasi uzra ruchka suza boshladi. Bola marjondek tizilayotgan

satrlardan ko'z uzmasdi:

Ancha yillar muqaddam Koreyadan O'zbekistonga ko'chirilgan ko'plab yurtdoshlarimiz qatori yosh bo'lgan bobom va buvim ham bu jannatmonand yurtda muqim yashab qolishgan. Otam va onam shu yerda tug'ilib, voyaga yetishgan, o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishgan.

El ichra obro'-e'tibor topishgan. Mahalladoshlarimiz bir-birlarini juda hurmat qilishadi. Biz aka-singillar hammamiz turli kasblarda mehnat qilayapmiz.

«Iloyo, jonajon yurtimiz O'zbekistonga ko'z tegmasin!» Bu nafaqat o'zbeklar, balki O'zbekistonda yashayotgan turli millat vakillaridan iborat bir oila farzandlarining dil so'zlaridir!

Kichkinaligimda bobomdan «Vatanimizni bunchalar yaxshi ko'rishingizni sababi nimada?» deb so'raganimda, bobom: «O'zbekistonda baxti kulgan, baxtiyor insonlar yashashadi...», deya faxr bilan qulochini keng yoyib, biz nabiralarni atrofnii kuzatishga undagan edi.

O'g'limizning ismiga kelsak, farzandlik bo'lganimizda, turmush o'rtog'im – Kim chehrasida tabassum balqqanacha yonimga kelib: – Tabriklayman! Mana buni o'qil! – deya qo'limga tut'lganlik to'g'risidagi guvohnomani tug'qazdi.

Go'dagimizning ismini o'qigach: – Nega Baxtiyor? – deya yuzlandim Kimga.

– Baxtiyor – eng chiroyli ismlardan biri. O'g'limizga doimo baxt yor bo'lsin, deya ismini Baxtiyor qo'ydim-da! – dedi Kim. – Bilasanmi, ismda ham hikmat bor. Farzandimizning qadamlari, umr yo'llari doimo baxtga yor bo'lsin! Maktabga chiqqanida, o'qituvchisi jurnalga qarab «Kim Baxtiyor», deydi. O'g'limiz esa «Men!» deya qo'lini ko'taradi. Ajoyib-a!

– Juda ajoyib! – dedim men va Kimni farzandimizning chiroyli ismi bilan qukladim. Baxtiyor Koreya va O'zbekistonni birdek sevadi. Dunyodagi barcha bolalarga hamisha baxt yor bo'lishini istaydi. Iloyo, farzandlarimiz baxtiga ko'z tegmasin!

Abdulla AYIZOV

IZLANISHDAN TOLMAYDIGANLAR

Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 26-umumta'lim maktabida sportsevar o'quvchilar talaygina.



**Shamsiddin TURSUNMUHAMMADOV,
6-«A» sinf o'quvchisi:**

– 1-sinfdan buyon «Bunyodkor» sport majmuasiga qatnayman. Ustozim Ulug'bek Bakirov hamda G'ulom Halimtoyevdan futbol o'ynashni puxta o'rganyapman. 2006-yilda tug'ilgan o'smirlardan iborat jamoamiz bilan Rossiya, Qozog'iston, Bolgariyada o'tkazilgan musobaqalarda qatnashib, faxri o'rinlarni o'laymiz. Abdurahmon Abdusamadov, Jahongir Isomiddinov, Muhammad Yusuf Sobirov, Otabek Boltayev, Aziz Aldekulov kabi futbolchi tengdoshlarim bilan jahon chempionatlarida qatnashishni orzu qilamiz. Tohir bobom bilan ertalab soat to'rtida turib, yuguramiz. Sport mashqlarini bajaramiz. Bobojonim sportning ahamiyati haqida ko'p gapiradilar. Sport bilan do'stlashsang, menga o'xshab, aslo toliqishni bilmaysan, deydilar 80 yoshli bobom.



**Bilol SHAVKATOV,
3-«V» sinf o'quvchisi:**

– O'tgan yili dadamga sportning kurash turi bilan shug'ullanmoqchi ekanligimni aytdim. Dadam rozi bo'ldilar va meni tumandagi 1-BO'SM maktabiga olib bordilar. Hozirda ustozim Shuhrat Jumayevdan kurash tushish sirlarini puxta o'rganyapman. Soima Muhammadkarimova, Mohlaroyim G'ulom-qodirova, Komil Ilhombekov, Bositxon G'ayratov, Gulnur Yahyoyeva kabi ko'plab sinfdoshlarim a'lo baholarga o'qish bilan bir qatorda, turli sport turlari bilan ham shug'ullanishadi.

Sunnat ESONOV, 7-«V» sinf o'quvchisi:

– 1-Bolalar va o'smirlar sport maktabidagi ustozim Ramilya Xoliqova menga suzishni o'rgatyapti. Shuningdek, taekvando sport turi bilan ham shug'ullanaman. Bu sport turi bo'yicha «Jar» sport kompleksida o'tkazilgan Respublika bosqichida qatnashib, faxri o'rinni egalladim. Katta bo'lsam, kompyuter dasturlovchisi bo'lmoqchiman. Informatika fani ustozim Ozoda A'zamovadan kompyuterining sir-asrorlarini o'rganyapman. Yaqinda AQSH elchixonasi tomonidan 12–15 yoshlilar o'rtasida informatika fanidan bellashuv bo'lib o'tdi. Unda 600 nafar o'quvchi matematika fanidan olgan bilimlarimizni sinovdan o'tkazdik. 20 nafar g'oliblar qatorida men ham o'quv kurslariga taklif qilindim. Onam Nasiba Lapasova yaqinda menga «O'tkan kunlar» kitobini sovg'a qildilar. Uni 8-sinfda o'qiydigan opam Fayozga bilan birga o'qishni boshladik.



To'garaklar faoliyati kengaymoqda



«Sport» to'garagi rahbari Sirojiddin G'oyibnazarov hamda Manzura Rahmonovaning mashg'ulotlarida o'quvchilar hamisha gavjum bo'ladi.

Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan beshta tashabbus bo'yicha seminar bo'lib o'tdi. Seminar doirasida sport, «Mohir qo'llar», tasviriy san'at to'garaklari a'zolarining ijodiy ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etildi.



Dilshoda Rahimova rahbarlik qilayotgan «Mohir qo'llar» to'garagi a'zolari Sabina Yunusaliyeva, Muxlisa Karimjonova, Mumtoza Ne'matova, Mushtariy Solijonova kabi o'quvchilarning ijodiy ishlari turli ko'rik-tanlovlarda namoyish etilgan-da, tomoshabinda katta qiziqish uyg'otadi.

Nodira NAZAROVA

YORDAM BERING BIZGA, USTOZ!

(Maktab direktoriga Bilmasvoydan tushgan ariza)

Ta'til payti juda ham soz,
Ammo uch oy yetmaydi, oz,
Qo'shsa bo'lmaydimi biroz,
Yordam bering bizga, ustoz?!
Ustozlarning topshirig'i,
Barchasidir bosh og'rig'i,
Dam olaylik biz qish-u yoz,
Yordam bering bizga, ustoz.
Ta'til vaqti ta'til bo'lsa,
Imtihonlar kechga qolsa,
O'ylantirar qalam, qog'oz,
Yordam bering bizga, ustoz.
Bizlar bundan norozimiz,
Imtihonli har yozimiz,
Shudir dildan chiqqan ovoz,
Yordam bering bizga, ustoz!



BALKI UCH OY KO'PLIK QILAR?!

(Bilmasvoyga maktab direktoridan javob xati)

Arizani zo'r yozibsan,
Ochiq aytsam, qoyil qoldim.
Bilmasvoyning xati, deya,
Hurmat bilan qo'lga oldim.
Ta'til o'zi joy-joyida,
Balki uch oy ko'plik qilar?!
Imtihonlar bo'lmasa gar,
O'quvchilar nodon bo'lar.
Imtihon ham juda yaxshi,
Sinaladi bilimlaring.
O'zi bir gap bo'lsa kerak,
Taltayibsan senlar baring.
Ish-u o'qish joy-joyida,
Bo'lsa bo'lar qanchalik soz.
Nasihatim yodda tutib,
O'ylab ko'rgin, bolam, biroz.

Yorqinjon HAYITBOYEV,
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 15-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«N» HARFLI TOPQIRLIK MASHQLARI

KRIPTOGRAMMA: Shakilda aylana holida joy olgan raqamlarda yettita atoqli shoirlarning janrlari yashiringan. Ularni quyidagi kalit so'zlar javoblari orqali bilib oling.


1. Usmon Nosir dostoni – 2, 6, 13, 9, 3, 2.
2. O'zbek xalq maqomi – 2, 6, 8, 3.
3. Erkin Vohidovning «Orzu chashmasi» turkumidagi dostonlaridan biri – 2, 1, 11, 3.
4. Adabiy janr – 2, 6, 7, 5.
5. Bosma asarlar chop etish muassasasi – 2, 6, 9, 12, 1, 4, 3, 10.
6. Gullari mayda, xushbo'y buta yoki daraxt ko'rinishidagi manzarali o'simlik – 2, 6, 14, 10, 6, 12, 1, 2.

KROSSVORD. Javoblar shakl markazidagi «n» harfi bilan tugaydi.

1. Farg'ona viloyatidagi tarixiy shahar.
2. Qor-yomg'ir aralash esuvchi shiddatli shamol.
3. Daryoga nomdosh taom.
4. Tog'likdagi o'tish uchun qulay joy.
5. Oldi ochiq xona.
6. O'zbek hikoyanavis adibasi.
7. Asaka avtomobili markasi.
8. Non turi.
9. Shoir, «Alisher Navoiy» dramasi mualliflaridan biri.
10. Qat'qli ichimlik.
11. Buxoro viloyatidagi shahar.
12. Poliz ekini.
13. Sochiluvchi yuklarni tashish uchun to'qilgan kajavali arava.
14. Yoqilg'i gazi.
15. Fransuz futboli to'purari, murabbiy.
16. Xona mebeli.
17. Markaziy Osiyodagi pasttekislik.
18. Respublikamizdagi ma'muriy hudud.
19. Qo'y boquvchi chorvador.
20. Savdo maskani.

Topshiriq: Shakl atrofidagi xonalarga «n» harfi bilan tugallanadigan respublikamizdagi to'rtta nomdosh va tumanlar nomini yozing.

Foziljon ORIPOV



Pazanda qizga!

PITSSANI BIRGA TAYYORLAYMIZ



Aziz o'quvchilar! Siz turli bu-terbrod, xot-dog kabi tez tayyorlanadigan taomlarni xush ko'rib iste'mol qilishingizni bilamiz. Ammo ularni muntazam iste'mol qilish va duch kelgan joydan xarid qilish mumkin emasligini ham allaqachon anglab yetgansiz. Shunday ekan, keling, pitsani uy sharoitida tayyorlab ko'ramiz.



Avvalo, bu taom uchun bitta kichikroq oshirma xamiri qorib, tindirib qo'yamiz. Xamir tingunga qadar 200 gramm qiyma, ikki dona pomidor, bir dona bulg'or qalampir, 300 gramm qirg'ichdan chiqarilgan pishloqni hozirlaymiz. So'ng, zuvala xamirni yo'yib, ustiga biroz ketchup (uni ham uy sharoitida pomidor pastasidan tayyorlab olish

mumkin) surtgach, qiyma va dumaloq shaklda kesilgan barcha mahsulotlarni birin-ketin taxlab chiqamiz. Taomning ustiga qirg'ichdan chiqarilgan pishloqni sepib, ishini yakunlaymiz. Pittsani qizib turgan gaz pechida non kabi qizarib chiqqunga qadar pishiramiz. Tayyor taomni bo'laklarga bo'lib, likopchalarga solib, dasturxonga tortishingiz yoki kichikroq idishga solib, maktabda tanovul qilish uchun olib ketishingiz mumkin.

Kichik pazanda do'stlarim! Siz yana qanday taomlarni o'z qo'lingiz bilan tayyorlab ko'rishni istardingiz? Bu haqda oshpaz opangizga yozib yuborishni unutmang!

Nargiza ABDULLAYEVA

8

29-aprel 2019

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALLOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Ohuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@mail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 11441
Buyurtma - V 3355

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08